



O‘ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MILLIY PREVENTIV MEKANIZMI.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati kafedrasini o‘qituvchisi mayor

G‘aniev Farrux Taxirjanovich

tel: +998916117373

Elektron pochta: fargan77@bk.ru

Annotatsiya: – ushbu maqolada O‘zbekistonda milliy tajriba va xalqaro standartlar asosida inson huquqlarini muhofaza qilish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar, inson huquqlari haqida hamda milliy preventiv mexanizm doirasida mavjud muammolar va yechimini kutayotgan dolzarb vazifalar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: – Inson huquqlari, milliy preventiv mexanizm, qiynoq, qadr-qimmatni kamsituvchi muomala, jahon standartlariga mos himoya tizimi, “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun.

Annotation: – This article talks about the reforms being implemented in Uzbekistan to protect human rights based on national experience and international standards, about human rights, as well as about existing problems and urgent tasks awaiting solution within the framework of the national preventive mechanism.

Keywords: – Human rights, national preventive mechanism, torture, degrading treatment, protection system that meets international standards, the law "On amendments to the Penal Enforcement Code of the Republic of Uzbekistan aimed at improving the national preventive mechanism for the prevention of torture"

Аннотация: – в данной статье говорится о реализуемых в Узбекистане реформах по защите прав человека на основе национального опыта и международных стандартов, о правах человека, а также о существующих проблемах и неотложных задачах, ожидающих решения в рамках национального превентивного механизма.

Ключевые слова: – Права человека, национальный превентивный механизм, пытки, унижающее достоинство обращение, система защиты, соответствующая мировым стандартам, закон «О внесении дополнений в Уголовно-исполнительный кодекс Республики Узбекистан, направленных на совершенствование национального превентивного механизма по предупреждению пыток»

Mustaqillik yillarida Respublikamizda inson huquqlarini muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi davlat tashkilotlari tizimi shakllandi. Bu tizimda an'anaviy sudlov va huquqni muhofaza qilish organlaridan iborat bo'lgan sudlov organlari bilan bir qatorda, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va nodavlat tashkilotlaridan iborat bo'lgan inson huquqlari bo'yicha nosudlov organlari ham shakllandi.

Inson huquqlarini O'zbekiston Respublikasining sud organlari orqali himoya qilish inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmining tarkibiy va hal qiluvchi qismidir. Chunki, sud buzilgan inson huquqlari va erkinliklarini qayta tiklash tizimida eng muhim vosita hisoblanadi. Har bir insonning huquq va erkinliklarini sud tomonidan muhofaza etilishi, davlat organlari, mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalarining noqonuniy harakatlaridan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Shu bilan bir qatorda O'zbekistonda milliy tajriba va xalqaro standartlar asosida inson huquqlarini muhofaza qilish uchun milliy preventiv mexanizmlar rivojlantirilmogda. Bular millatlararo huquqiy shartnomalar va uyushma hujjatlar, qonun hujjatlari, tashkiliy tadbirlar, huquqiy tashkilotlar, media va jamiyat tashkilotlari, davlat mehnat resurslari va boshqalardan iborat.

2019 yilda ilg'or xalqaro tajribalarga asoslanib, ombudsman huzurida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarining oldini olish bo'yicha Milliy preventiv mexanizmning yo'lga qo'yilgan.

Shaxsga nisbatan qiynoqlar, boshqa shafqatsiz yoki uning sha'nini kamsituvchi jazo va muomala shakllari inson huquqlarining eng qo‘pol ravishda buzilishi ekani umume'tirof etilgan haqiqatdir. Qaysi soha bo‘lishidan qat'iy nazar, qiynoq elementining uchrashi inson huquqlarining kafolatlanmaganidan dalolat beradi. Shuning uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan insoniyatga qarshi jinoyatlar orasida aynan qiynoq holatlarini keltirib chiqaruvchi sabablar bilan kurashishga alohida ustuvorlik beriladi.¹

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dasturida, jumladan, qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizmning qonuniy asoslarini rivojlantirish zarurligi ko‘zda tutilgan. Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 maydagi Farmoni bilan tasdiqlangan. Shu asosda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.²

Milliy preventiv mexanizm – qiynoqning har qanday ko‘rinishlarining oldini olish maqsadida mustaqil xalqaro va milliy organlarning ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar saqlanadigan joylarga muntazam tashriflar tizimini yaratishdir. Mazkur mexanizm dunyoning ko‘plab mamlakatlari, jumladan Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, Italiya, Gruziya, Ozarbayjon, Moldova, Ukraina va boshqa qator davlatlarda joriy etilgan.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomaci va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan bo‘lib, ularning amalga

¹<https://ombudsman.uz/uz/docs/millij-preventiv-mekhanizm-zahon-standartlariga-mos-himoya-tizimi>

² O‘zbekiston Respublikasi penitentsiar tizimining takomillashtirilishi qonunchilik va amaliyot-Toshkent 20221

oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalarida muntazam ravishda milliy ma'ruzalar bilan qatnashmoqda.³

Mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Ularga asosan inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson huquqlari va uni muhofaza qilish haqida so'z borar ekan, respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qancha islohatlardan biri xalq bilan hokimiyat o'rtasida to'g'ridan to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yilganligi jamiyatda insonlarning orzu istaklari va muammolarini hal qilish tizimining joriy qilinganligini ko'rsatishimiz mumkin. Albatta bu tizimini yo'lga qo'yishda davlatning siyosiy idorasi muhim rol o'ynaydi. Inson huquqlarini muhofaza qilishni ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarga qaramay bugungi kunda qiynoqlarni qo'llash xolatlari afsuski uchrab turibdi.

Shaxsga nisbatan qiynoqlar, boshqa shafqatsiz yoki uning sha'nini kamsituvchi jazo va muomala shakllari inson huquqlarining eng qo'pol ravishda buzilishi ekani umume'tirof etilgan haqiqatdir. Qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar, qiynoq elementining uchrashi inson huquqlarining kafolatlanmayotganidan dalolat beradi. Shuning uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan insoniyatga qarshi jinoyatlar orasida aynan qiynoq holatlarini keltirib chiqaruvchi sabablar bilan kurashishga alohida ustuvorlik beriladi.

Ayniqsa, ishi tergov jarayonida bo'lgan yoki sud hukmi bilan jazo muddatini o'tayotgan shaxslarning yopiq muassasalarda saqlanishi qiynoq holatlari yuzaga kelishi uchun sharoit yaratishi mumkin. Ozodligi cheklangan mahkum va mahbuslarning ayrim huquqlari ham cheklanadi. Lekin davlat ularning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitish, ruhiy bosim o'tkazish yoki boshqa jismoniy qiynoqqa

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni PF-6012. 2020 yil 22 iyun// <https://lex.uz/ru/docs/4872355>

solinishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Bunday xati-harakatlar oqibati juda jiddiy bo‘lgani uchun ularni bartaraf etish emas, balki aynan oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ko‘rsatilgan qonunlarni amalda qo‘llanishi bu albatta kim bo‘lishidan qa‘tiy nazar xoh u mahbus, xoh gumonlanuvchi bo‘lsin ularning sha‘ni, qadr-qimmatini kamsitish, ruhiy bosim o‘tkazish yoki boshqa jismoniy qiynoqqa solinishiga yo‘l qo‘ymaslik kafolatlandi. Bu esa O‘zbekistonda inson huquqlari milliy preventiv mexanizm — jahon standartlariga mos himoya tizimi yaratilganligidandir.

Ta‘kidlash lozimki, so‘nggi yillarda harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda yashash hamda tibbiy va sanitariya ta‘minoti masalalari ijobiy tomonga o‘zgarishiga qaramay, ayrim muassasalarda bu borada bir qator kamchilik va muammolar saqlanib qolmoqda.

Bunga javoban jazoni ijro etuvchi muassasalarda bir qator tadbir va o‘rganishlar olib borilgan. Monitoring qilingan.

O‘rganish davomida jazoni ijro etish muassasalarida bir qator kamchiliklar hamda o‘z yechimini kutayotgan muammolar aniqlandi. Jumladan, ishlab chiqarishda mehnatga jalb qilingan mahkumlar maxsus kiyim-bosh, poyabzal, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta‘minlanishi belgilangan bo‘lsa-da, monitoring o‘tkazilgan muassasalarda bu talablar to‘liq bajarilmagan. Ayrim manzil koloniyalarning ba‘zi bir bo‘linmalari ta‘mirtalab holatga kelib qolgani uchun mahkumlarni saqlash sharoitlari talabga javob bermasligi aniqlandi.⁴

Bundan kelib chiqadiki, biz o‘rganayotgan masalalar ko‘p bo‘lib, jinoyat ishlarini yuritishning yuqoridagi bosqich va jarayonlarini takomillashtirish, bu jarayonda qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish zarur. Bu

⁴ <https://ombudsman.uz/uz/docs/millij-preventiv-mekhanizm-zahon-standartlariga-mos-himoya-tizimi>

tegishli me'yoriy-huquqiy bazani tasavvurlar bo'yicha takomillashtirish vazifasini qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan inson huquqlarini himoya qilish, uni samaradorligini yanada oshirish bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish vazifasi ilgari surildi. Ushbu strategiyaning qabul qilinishi respublikamizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.⁵

Xalqimizning insonparvarlik, rahmdillik va yaxshilik, bag'rikenglik, kabi ezgu fazilatlarining yorqin ifodasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi bir qator farmonlari davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning insonparvarlik yo'nalishidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish, inson huquqlari himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga va mustahkamlashga xizmat qiladi. milliy preventiv mexanizmning samarali amalga oshirilishi nafaqat qiynoqlarga qarshi kurashish samaradorligining kafolati, balki xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzining yuksalishiga ham xizmat qiluvchi omildir. Shunday ekan, biz ana shu ezgu maqsadlardan kelib chiqib, inson huquqlarini himoyalash yo'lidagi ishlarni izchil davom ettirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

⁵ O'zbekiston Respublikasi penitentsiar tizimining takomillashtirilishi qonunchilik va amaliyot-Toshkent 20221

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni PF-6012. 2020 yil 22 iyun// <https://lex.uz/ru/docs/4872355>
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2012-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. - T.: 2013.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. - T.: O'zbekiston. 2009.
4. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi: Darslik/ II.T. Odilqoriyev tahriri ostida. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005.
5. O'zbekiston jahon hamjamiyati safida. Murodov H. va boshqalar. T.: Adabiyot va san'at, 2000.
6. Saidov A.X. Inson huquqlari sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi: ahvol, muammolar va istiqbollari //Inson manfaatlari: qonun hujjatlarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman hujjatlari. - T.: Ijtimoiy fikr. 1998.
7. O‘zbekiston Respublikasi penitentsiar tizimining takomillashtirilishi qonunchilik va amaliyot-Toshkent 20221.
8. <https://ombudsman.uz/uz/docs/millij-preventiv-mekhanizm-zhahon-standartlariga-mos-himoya-tizimi>
9. <http://nhrc.uz/uz/news/obsuzhdano-sozdanie-natsionalnogo-preventivnogo-mehanizma>